

“Kelajak soati” darsining 1-4-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

35-mavzu: “Mening portfoliom”

Annotatsiya: Ushbu darsning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda o‘z ustida ishlash, o‘z yutuqlarini qadrlash va kelajak maqsadlarini aniq belgilash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Dars davomida o‘quvchilar portfolio tushunchasi, uning ahamiyati va kelajakdagi o‘rni haqida bilimga ega bo‘ladilar.

Mashg‘ulot jarayonida bolalar o‘z qobiliyatlari, erishgan natijalari, ijodiy ishlari va orzularini bir joyga jamlash orqali o‘z “shaxsiy rivojlanish papkasi”ni yaratishni o‘rganadilar.

Dars o‘quvchilarda mas‘uliyat, o‘ziga ishonch, tartiblilik, maqsad sari intilish, o‘zini namoyon qilish kabi muhim hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu mashg‘ulot bolalarning o‘z qobiliyatlarini anglashiga, yutuqlaridan faxrlanishiga va kelajak kasbi haqida o‘ylashiga yordam beradi.

Aniq maqsadlar:

Ta’limiy: Portfolio haqida tushuncha berish, o‘quvchilarning yutuqlarini qayd etib borish, jamlashga o‘rgatish, o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Tarbiyaviy: O‘quvchilarda bajarayotgan har bir ishiga mas‘uliyat hissini uyg‘otish, o‘z mehnatini qadrlashga o‘rgatish, intilish va harakatga undash.

Rivojlantiruvchi: Nutq madaniyatini, o‘zini jamoada qanday tutish, ijobiy xulq-atvorni rivojlantirish, ijodkorlikni oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish.

Asosiy maqsad: O‘quvchilarda portfolio yuritish orqali o‘z yutuq va faoliyatlarini muntazam tahlil qilish, mustaqil ishlash, ijodkorlik va mas‘uliyat ko‘nikmalarini shakllantirish.

Portfolio orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va yutuqlarini jamlash hamda ularning mustaqil fikrlash, o‘z ustida ishlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirish.

Metapredmet: O‘quvchilarda o‘z faoliyatini rejalashtirish, natijalarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Portfolio bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning axborotni yig‘ish, saralash, tahlil qilish, o‘z fikrini erkin ifodalash hamda o‘z-o‘zini baholash kompetensiyalarini shakllantirish. O‘quvchilarda refleksiya, kreativ fikrlash, kommunikativ va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o‘yin elementlari va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to'plami:

ssenariy;

uslubiy tavsiyalar;

videomateriallar;

interaktiv topshiriqlar;

taqdimot.

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O'qituvchi stol ustiga "jamg'arma quti" yoki qopqog'ida kichik teshigi bor oddiy banka qo'yadi. Ichida bir nechta tanga va qog'oz pul.

O'qituvchi: Bolajonlar, bu nima, bilasizlarmi?

O'quvchilar: Jamg'arma quti! Pul yig'adigan banka!

O'qituvchi: To'g'ri. Orangizda velosiped, smartfon yoki platshet olishni orzu qiladiganlar bor, albatta. Bilamizki, orzu qilganimiz bilan velosiped o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Uning uchun oz-ozdan pul yig'iladi. Bugun bir tanga, ertaga yana bittasi. Bora-bora jamg'arma qutimiz to'lib, orzuyimizga yetamiz.

O'qituvchi qutini silkib ko'rsatadi.

O'qituvchi: Endi tasavvur qilingki, insonning kelajagi uchun ham xuddi shunday "jamg'arma quti" bor. Unga pul emas, yaxshi odatlar, bilimlar, yutuqlar, qiziqishlar, mehribonlik va harakatlar yig'iladi. Shunday ramziy "bankacha"ni tasavvur qila olasizlarmi?

Bolalar qiziqib javob bera boshlaydi.

O'quvchilar: Qiziq ekan! U qanday bo'ladi?

O'qituvchi: Bu "Kelajak yig'majildi" deyiladi. Katta odamlar buni "portfolio" deb atashadi. Portfolio – bu sizning kelajagingiz uchun yig'ayotgan eng muhim boyligingiz.

O'qituvchi doskaga katta harflar bilan yozadi:

"KELAJAK YIG'MAJILDI – PORTFOLIO"

O'qituvchi: Bugun biz kelajak uchun nimalarni yig'ish mumkinligini bilib olamiz. Balki sizning orangizda kelajakdagi olim, sportchi, rassom, ixtirochi yoki dunyoning eng katta universitetlarida o'qiydigan bolalar bordir. Qani, kelajakda kim bo'lmoqchisiz? Kim aytadi?

O'quvchilar: Men futbolchi bo'laman!

Men shifokor!

Men kosmosga uchaman!

Men robot yasayman!

O'qituvchi: Ajoyib! Bu orzularga yetish mumkin, faqat harakatni bugundan boshlash kerak.

O'qituvchi bolalarga kichik qog'ozchalar tarqatadi.

O'qituvchi: Hozir har biringiz qo'lingizdagi kichkina qog'ozchaga kelajakda kim bo'lmoqchi ekaningizni yozasiz yoki chizasiz. Kimdir kasbini yozadi, kimdir nimaga erishmoqchi ekanini. Keyin uni mana shu "Kelajak jamg'arma qutisi"ga tashlaymiz.

Bolalar topshiriqni bajaradilar va qog'ozchalarni banka (yoki "jamg'arma quti"ga) tashlashadi.

O‘qituvchi: Mana ko‘ryapsizmi, katta orzu ham kichkina qadamdan boshlanar ekan. Bugun biz sizlar bilan mana shu kichik qadamlarni qanday qo‘yish kerakligini gaplashamiz. Ya‘ni kelajakdagi orzuyimizga yetish uchun yutuqlar jamg‘arishni o‘rganamiz.

II. ASOSIY QISM (25 daqiqa)

O‘qituvchi: Bolajonlar, portfolio degani – bu sizning o‘shish tarixingiz degani. Ya‘ni “Men nimalarni o‘rgandim?”, “Nimalarga qiziqaman?”, “Nimalarni uddalay olaman?” degan savollarga javoblaringiz yig‘ilib portfolioni tashkil qiladi.

Doskada yoki ekranda rasmlar paydo bo‘ladi.



O‘qituvchi: Qaranglar, bu bolalarning har biri kelajagi uchun nimadir yig‘yapti. Kimdir bilim yig‘yapti, kimdir mehribonlik, kimdir sportda kuchli, yana kimdir ijodkorlik.

O‘qituvchi birinchi rasimga ishora qiladi.

O‘qituvchi: Kitob o‘qiyotgan bola kelajagi uchun nima yig‘yapti?

O‘quvchilar: Bilim!

Aql!

Yangi so‘zlar!

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Har bir o‘qilgan kitob kelajak yig‘majildiga qo‘shilgan oltin tanga kabidir. Demak, ko‘p-ko‘p kitob o‘qishimiz kerak ekan.

Nogironligi bor insonga yordam berayotgan bola rasimga ishora qiladi.

O‘qituvchi: Nogironligi bor tengdoshiga yordam berayotgan bola-chi?

O‘quvchilar: Mehr yig‘yapti.

Insoniylik!

Insonparvarlik!

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Mehribonlik ham insonni katta qiladi. Chunki eng kuchli odam faqat bilimli emas, yuragi yaxshi inson ham bo‘ladi.

Uchinchi rasmga o‘tadi.

O‘qituvchi: Daraxt ekayotgan bola-chi?

O‘quvchilar: Tabiatni asrayapti! Yaxshilik qilyapti!

O‘qituvchi: Demak, yaxshi ishlar ham portfolio uchun muhim ekan. Biz tabiatni yaxshi ko‘rsak, uni asrasak, qushlarga uylar qursak, gullarni parvarish qilsak, daraxtlar eksak, jonivorlar boqsak – bularning bari bizni tabiatsevar inson bo‘lib katta bo‘lishimizga yordam beradi. Tabiatni yaxshi ko‘rgan inson o‘z orzulariga yetish yo‘lida atrof-muhitni ifloslantirmaydi, boshqalarga zarar yetkazmaydi.

Shu tarzda o‘qituvchi qolgan suratlarni ko‘rsatib bolalarning izohini tinglaydi va xulosalaydi.

O‘qituvchi: Bolajonlar, ba‘zi bolalar chet tillarini o‘rganib, maxsus sertifikatlar olishadi. Bu ham portfolio uchun juda foydali. Til sertifikati olish uchun o‘sha tilni yaxshilab o‘rganib, keyin maxsus imtihon topshirish kerak.

Hozir sertifikatlarning o‘zi sizlarga nima uchun kerakligini tushuntirib beradi. Monitorga qaraymiz.

Vizual kontent

Xorijiy til sertifikatlari tilga kirganda...

<https://youtu.be/-3wT5jqCZt8>

O‘qituvchi: Ko‘rdingizmi, oddiygina bugungi o‘rganilgan yangi so‘z ham ertangi katta imkoniyatga aylanishi mumkin ekan.

Bolajonlar, orzularingizga yetish uchun yaxshi ta‘lim olishingiz kerak. Buning uchun sizlar katta bo‘lgach, dunyodagi eng zo‘r, TOP universitetlarga kirib o‘qishingiz mumkin.

TOP universitetlar faqat bahoga qaramaydi. Ular “Bu bola nimaga qiziqadi?”, “Nima yaratdi?”, “Jamiyatga qanday foydasi tegdi?” degan narsalarga ham qaraydi.

O‘qituvchi stol ustiga ikki papka qo‘yadi. Birinchisi bo‘sh. Ikkinchisida esa rasmlar, kichik sertifikatlar, chizmalar bo‘ladi.

O‘qituvchi: Qani aytinglar, qaysi papka qiziqroq?

O‘quvchilar: Ikkinchisi!

O‘qituvchi: Nega?

O‘quvchilar: Chunki ichida ko‘p narsa bor!

O‘qituvchi: Mana shu portfolioning kuchi va ta‘siridir. Sizlarning “kelajak yig‘majildi”ngiz qanchalik kuchli va ta‘sirli bo‘lishini bugungi harakatlaringiz belgilaydi.

Interaktiv o‘yin – “Kelajak xazinasi”

Doska oldiga “Bilim”, “Mehribonlik”, “Ijod”, “Sport” deb yozilgan 4 ta savatcha qo‘yiladi. O‘qituvchi turli harakatlarni o‘qiydi. Javob uchun turg‘izilgan o‘quvchi qo‘lidagi kartochkani tegishli savatchaga soladi.

O‘qituvchi: “Kitob o‘qidi”

“Bobosiga yordam berdi”

“Rasm chizdi”

“Futbol o‘ynadi”

“Yangi so‘z o‘rgandi”

“Sahnada she‘r aytdi”

“Gullarni parvarish qildi”

“Qushlarga uy qurdi”

Bolalar qaysi savatchaga tegishli ekanini topib joylashtirishadi.

O‘qituvchi: Barakalla, bolalar. Aslida bularning hammasi kelajak yig‘majildiga qo‘shiladigan yaxshi ishlar va yutuqlardir. Ulardan ko‘proq yig‘ib olinglar.

Hozir sizlar bilan juda qiziq videoni ko‘ramiz. Unda “Portfolio qanday yig‘iladi?” degan savolga javob beriladi. Kelinglar, birgalikda tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Birgalikda portfolio yasaymiz

<https://youtu.be/YIG89f-nq1I>

O‘qituvchi: Demak, ta‘til davomida har biringiz o‘zingizning kichik “Kelajak papkangiz”ni boshlashingiz mumkin.

Ba‘zi bolalar “Men hali kichkinaman” deb o‘ylashi mumkin. Lekin katta muvaffaqiyatlar aynan sizning yoshingizda boshlanadi.

Doskadagi dars boshida ko‘rsatilgan rasmlarga yana e‘tibor qaratiladi.

O‘qituvchi: Mana bu bolalar ham bir kuni shu ishlarni umrida birinchi marta qilib ko‘rishgan. Keyin bu ishlar asta-sekin odatga aylangan. Hech kim birdaniga chempion yoki olim bo‘lib qolmaydi.

Demak, biz ham hozirdan boshlashimiz kerak! Har bir yaxshi odat – kelajakka qo‘yilgan kichik, ammo muhim qadamdir.

Pauza.

O‘qituvchi: Bolajonlar, yurtimizda bolalarning qiziqishlarini rivojlantiradigan juda ko‘p markazlar bor. Hozir Sirojiddin bilan birga Navoiy viloyati Navbahor

tumanidagi “Kelajak” markaziga sayohat qilamiz. Balki siz ham yozda shunday to‘garaklarga qatnashishni xohlab qolarsiz.

Vizual kontent

Navoiy viloyatidagi “Kelajak” markazidamiz

https://youtu.be/DQmdfRD2D_Y

O‘qituvchi: Ko‘rdingizmi, kimdir robot yasayapti, kimdir rasm chizyapti, yana kimdir sport bilan shug‘ullanyapti. Ularning hammasi kelajagi uchun “xazina” yig‘moqda.

Endi bir sirni aytaman. Portfolio uchun eng muhim narsa – har kuni oz-ozdan harakat qilish.

O‘qituvchi yana jamg‘arma qutini ko‘rsatadi.

O‘qituvchi: Jamg‘arma qutiga har kuni bittadan tanga tashlansa, u to‘ladimi?

O‘quvchilar: Ha!

O‘qituvchi: Har kuni bittadan foydali ish qilsak, nima bo‘ladi?

O‘quvchilar: Portfolio kattalashadi!

O‘qituvchi: To‘g‘ri! Demak, kelayotgan yozgi ta’tilda nima qilishni yaxshi bilasiz-a?

O‘quvchilar: Ha!

III. YAKUNIY QISM (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz bolajonlar, bugun biz juda muhim narsani bildik. Kelajak tasodifan qurilmaydi. U bugungi kichik harakatlardan boshlanadi.

Bugun o‘qilgan kitob, bugun o‘rganilgan yangi so‘z, bugun qilingan yaxshilik, bugun chizilgan rasm – bularning hammasi sizning kelajak yig‘majildingizga qo‘shiladi.

Bir kuni katta bo‘lganingizda orqaga qarab: “Men orzuyim uchun bolaligimdan harakat boshlagan ekanman”, deb faxrlanasiz.

Ta’til davomida kim o‘z portfolio papkasini boshlaydi?

O‘quvchilar: Men!

Men ham!

Albatta!

O‘qituvchi: Unda sizlarga yozda uyga vazifa: har biringiz ta’til davomida kamida 1 ta kitob o‘qing, 1 ta yaxshi ish qiling, 1 ta yangi narsani o‘rganing, 1 ta ijodiy ish yarating va ularni “Kelajak papkasi”ga yig‘ing. Keyingi yil shu papkalar bilan yana uchrashamiz.

Endi esa kayfiyatni yanada ko‘tarib, quvnoq qo‘shiq kuylaymiz . Chunki katta orzular quvonch bilan boshlanadi!

Musiqiy kontent

“Barkamol avlod” qo‘shig‘i – karaoke

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/603

O‘qituvchi: Bolajonlar, unutmang, siz hali kichkina bo‘lsangiz ham, katta orzular sari yo‘lni allaqachon boshlab yuborgansiz. Ta‘tilni faqat dam olish emas, o‘zingizni kashf qilish fasliga aylantiring.

Yoz davomida quvnoq dam oling, yangi narsalarni o‘rganing, ota-onangizni xursand qiling va eng muhimi – orzu qilishdan hech qachon to‘xtamang.

Chunki katta kelajak bugungi sizdan boshlanadi.

Xayr, bolajonlar, yangi yutuqlar bilan yana uchrashguncha!